



BO'LAJAK HARBIY TA'LIM MUTAXASSISLARINING KASBIY KOMPETENTLIGINI SHAKLLANTIRISH OMILLARI

Akbaraliyev Shahboz Shavkatjon o'g'li

*Mudofaa vazirligi Markaziy apparati Harbiy kadrlarni tayyorlash boshqarmasi
bosh mutaxassis-ilmiy xodim*

Raxmatullayeva Durдона Ravshanovna

Professional ta'limni rivojlantirish instituti professori v.b., P.f.d. (DSc)

Annotatsiya: *Maqolada oliy ta'lim muassasalarida tahsil olayotgan bo'lajak harbiy ta'lim mutaxassislarini kasbiy kompetentligini shakllantirishning pedagogik shart-sharoitlari keltirilgan. Shuningdek, pedagogik faoliyat jarayonida kasbiy kompetentligini shakllantirishga ta'sir ko'rsatuvchi bir qancha omillar tahlili bayon etilgan.*

Kalit so'zlar: *pedagoglik kompetentlikni shakllantirish, pedagoglik kompetentlikni rivojlantirish, omil, bo'lajak harbiy o'qituvchi, pedagoglik kasbi.*

Аннотация: *В статье представлены педагогические условия формирования профессиональной компетентности будущих специалистов военного образования, обучающихся в высших учебных заведениях. Также описан анализ ряда факторов, влияющих на формирование профессиональной компетентности в процессе педагогической деятельности.*

Ключевые слова: *формирование педагогической компетентности, развитие педагогической компетентности, фактор, будущий военный педагог, педагогическая профессия.*

Abstract: *Pedagogical conditions for formation of professional competence of future military education specialists studying in higher military educational institutions are presented in the article. Also, the analysis of several factors affecting the formation of professional competence in the process of pedagogical activity is described.*

Key words: *formation of pedagogic competence, development of pedagogic competence, factor, future military teacher, pedagogic profession.*

Harbiy pedagog kadrlar tayyorlash tizimida ijodkor, mustaqil harakat faoliyatiga ega bo'lgan, pedagogik jarayonni to'g'ri tashkil eta oladigan, o'zining kasbiy bilim, ko'nikma, malakalari asosida yangicha o'qitish shakli, metod va vositalarini izlab topib, amaliyotga joriy etadigan malakali mutaxassislarni tayyorlashga alohida e'tibor qaratilmoqda. Chunki pedagogik mahorat va pedagog kompetentlik sub'yektning shaxsiy-malakaviy sifatlarini belgilovchi, uning ijodiy taraqqiy topishiga ko'makchi, pedagogik jamoaning muvaffaqiyatini oshiruvchi vosita bo'lib xizmat qiladi. Globallashuv sari borayotgan hozirgi dunyoda davlatning xalqaro raqobat jarayoni shartlariga tez moslashuvi uning muvaffaqiyatli va barqaror rivojlanishining asosiy omili hisoblanadi. Bunda yuksak taraqqiy etgan davlatlarning asosiy ustunligi – ta'lim



tizimining holati shaxsni rivojlantirish imkoniyatlari mavjudligiga bog'liq. Davlatning bugungi va istiqboldagi barqaror iqtisodiy o'sishini ta'minlovchi omillar ham aynan ta'lim sohasi rivojlanishi va pedagog kadrlarni tayyorlashga bog'liqdir.

O'qituvchilik – insoniyat jamiyati tarixi boshlangandan e'tiboran davom etib, shu bilan birga, hamma vaqt jamiyat va jamoatchilik tomonidan e'tiborga loyiq, e'zozlab kelingan kasb, shu jihatdan olganda, davlatning bugungi va istiqboldagi barqaror iqtisodiy o'sishini ta'minlovchi omillar ham aynan ta'lim sohasi rivojlanishiga bevosita bog'liqdir.

Bugungi globallashuv davrida zamonaviy o'qituvchilar kompetentligi quyidagilarda o'z aksini topadi:

- insonparvarlik;
- kommunikativlik;
- kasbiy mustaqillik, ishchanlik, hissiy barqarorlik, o'z ishiga ijodiy yondashish;
- pedagogik texnika va texnologiyalardan oqilona foydalanish;
- nutq texnikasi, o'z tovush, mimika va gavdasini boshqarish, jamoa va shaxsga ta'sir ko'rsatish qobiliyatlarini takomillashtirish;
- zamonaviy fan va ishlab chiqarishdagi muammolar, pedagogik, axborot va yuqoridarajadagi texnologiyalardan xabardor bo'lish hamda ulardan zarurlarini ta'lim jarayoniga tatbiq etish va boshqalar.

Pedagogik kompetentlik barcha pedagoglar uchun qolipdagi ish uslubi emas, balki u har bir o'qituvchining o'z ustida ishlashi, ijodiy mehnati evaziga yuzaga keladigan jarayondir. Shu jihatdan olganda, pedagog mutaxassislarning kompetentligini rivojlantirish uchun quyidagilarga e'tibor berish kerak:

- shaxs ma'naviy-axloqiy sifatlarining faol shakllanishi, pedagogik texnologiyalarning tamoyillari bilan bog'liqlikda keyingi amaliy faoliyatda ta'lim jarayonini pedagogik jihatdan bir butun tarzda tashkil etish va amalga oshirish;
- ta'limga texnologik yondashuv asosida masho'ulotlarning o'quv maqsadini qo'ya olish, pedagogik faoliyatni rejalashtirish;
- amaliy masho'ulotlarni modellashtirish, qiyinchiliklarni bartaraf etish imkoniyatlarini bashorat qila olish, xatolarni tuzata olish strategiyasini ishlab chiqish;
- ta'lim oluvchi shaxsining har tomonlama taraqqiy etishi, ta'lim jarayonining «jonli», ijodiy tashkil etishga yordam beruvchi ta'limning zamonaviy integrativ, bilish faoliyatini boshqarish metodlarini egallash;
- ta'lim standartlarining yangi talablari va o'zining ehtiyojlari bilan bog'liqlikda o'qitish va ta'lim sifatini tashxis etishining turli usul va vositalaridan samarali foydalanish, bundan tashqari yangi metodik yo'llarni mustaqil yaratish va nazorat qilish ko'nikmalarini egallash;
- pedagogika va psixologiyaga oid yangi adabiyotlarni muntazam mutolaa qilib borish;



- ilg'or pedagogik tajribalar va pedagogika fanining zamonaviy yutuqlaridan amaliyotda foydalanib, ijodkor, mustaqil fikrlovchi va har tomonlama barkamol shaxsni shakllan- tiruvchi ma'naviy-ma'rifiy, tarbiyaviy ishlarni olib borish.

Bunda o'qituvchining faoliyati quyidagilarda o'z ifodasini topadi:

- o'z-o'zini rivojlantirish;
- o'quv faoliyatini ilo'or texnologiyalar asosida qurish;
- o'qituvchi va o'quvchilar o'rtasida o'zaro hamkorlikning qaror topishiga zamin yaratish;
- o'quv faoliyatining o'quvchilar ichki motiviga asoslangan izlanuvchanlik yo'nalishining kasb etishini ta'minlash va boshqalar.

Pedagogik faoliyat bo'lajak harbiy mutaxassislarni uch xil pedagogik ta'sir ko'rsatishni nazarda tutadi: nimani o'qitish, kimni o'qitish va qanday o'qitish? Demak, mohir o'qituvchi o'quv predmetidan material tanlash va uni guruhlarga ajratish uquvini oshirishi, o'quvchilarning mavjud imkoniyatlari, ta'limning umumiy maqsadlarini amalga oshirib, o'quvchilarga ta'sir ko'rsatishning shakl, usul va metodlarini oqilona tanlashi va qo'llashi lozim. Tabiiyki, mohir o'qituvchi o'zining shaxsiy faoliyatini o'zi tahlil qilib boradi. Ish davomida o'quvchilar va o'zining shaxsiy mehnati hamda sarflangan vaqtini hisobga olish, ishdagi kamchiliklar mavjud joylarni ko'ra bilish va ularni bartaraf etish yo'llarini tanlash, o'z tajribasini va hamkasblarining ishlarini tahlil qilish o'ta muhim. Agar pedagogik faoliyatning barcha sanab o'tilgan tarkibiy qismlari mavjud bo'lsa, u holda uni psixologik jihatdan to'la va yetuk, deb hisoblash mumkin.


Pedagogik kompetentlikni rivojlantirish uchun faoliyat davomida pedagogik vazifa va maqsadlarni qo'yish, uni o'zgartirish, pedagogik vaziyatlarni taqqoslash va klassifikasiyalash, qaror qabul qilish, pedagogik tafakkur va pedagogik intuisiya, tahlil etish, baholash, o'zini o'zi tuzatish, pedagogik refleksiya va boshqalar kabi muhim kasbiy sifatlar mujassamlanadi. Pedagogik kompetentlikni rivojlantirish bevosita uning faoliyatida ro'y beradigan o'zgarishlar, motivlar, maqsadlar, yangi vositalarni qo'llash, usullar hamda faoliyat dasturi bilan bog'liq holda kechadi. Turli pedagogik o'zgarishlar asosida o'qituvchi faoliyati shakllanadi. Pedagogik mahoratga ega bo'lgan o'qituvchi tarbiyadagi qiyinchiliklarni engishga qodir bo'lgan nufuzli rahbar, o'sib kelayotgan yosh avlodning ichki dunyosini tushuna oladigan, ularning tuyg'ularini his qila oladigan, ichki dunyosi nozik va zaif bo'lgan bola shaxsiga mohirlik bilan avaylab yondashadigan, donolik va ijodiy dadillik, ilmiy tahlil, xayol va fantaziya, chuqur ilmiy tafakkurga ega bo'lgan shaxs hisoblanadi.

Pedagogik nazariya va amaliy faoliyat natijalariga ko'ra o'qituvchi pedagogik kompetentligining shakllanishiga ta'sir qiluvchi omillari mavjud bo'lib, ulardan eng muhimlari sifatida quyidagilarni ko'rsatish mumkin: O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi; "Ta'lim to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasining Qonuni, nazariy-usuliy bilimlar; ixtisos fanlari va pedagogik faoliyat; pedagogik turkum fanlar;



psixologik muhit; madaniy-tarixiy an'analar; urf - odatlar; diniy qadriyatlar; siyosiy voqealar; pedagogning intellektual salohiyati, axborot – kommunikativ vositalar.

Ularni umumlashtirgan holda quyidagi jadvalda o'qituvchi pedagogik kompetentligining shakllanishiga ta'sir etuvchi ijtimoiy-pedagogik omillarni keltiramiz. Qarang, jadvalda keltirilgan unsurlar pedagogik kompetentlikni shakllantirish, mustaqillik yo'lidan dadil odimlab, fuqarolik jamiyatini qurishga intilayotgan mamlakat o'qituvchisini faol mehnatga tayyorlab, uning uzluksiz mahoratini oshirish ko'nikmalarini shakllantirish, ilmiy nazariy, amaliy -usuliy tayyorgarligini oshirish, jamiyatda, atrof-muhitda sodir bo'layotgan voqea-hodisalarga ongli munosabatini tarkib toptirish, har bir harbiy ta'lim o'qituvchisining individual



ijodiy qobiliyatlarini mustahkamlash uchun omil bo'lib hizmat qiladi.

Pedagogik kompetentlikning shakllanishiga ta'sir qiluvchi omillar

Shuningdek, bu kasbiy-shaxsiy xususiyatlar o'qituvchi – tarbiyachiga, o'quvchi yoshlarning ruhiy-jismoniy rivojlanishlari, o'quv-biluv faoliyatlarining aktivlashuvini ta'minlash kabi bir necha pedagogik vazifalarni muvaffaqiyatli bajarishning tamal toshi bo'la oladi.

Qayd qilib o'tganimizdek pedagogik kompetentlik har bir harbiy ta'lim o'qituvchi tarbiyachi uchun xos bo'lgan ta'lim – tarbiya ishlarini doimo yuksakka ko'tarishga, uni



takomillashtirishga asos bo'luvchi san'atdir. Bu san'at o'z ishini bilish faoliyatini muntazam tartibga solib, nazorat qilib, yuksaklikka ko'tarish bilan tavsiflanadi. Unda eng asosiysi pedagogik-psixologik nazariyalarni samarali qo'llash nazarda tutilgan.

Shu o'rinda e'tirof etib o'tish joizki, hozirgi davr, milliy mustaqillik o'qituvchi – tarbiyachining o'z faoliyati jarayonida quyidagi uch muhim vazifani amalga oshirishini talab etadi:

1. Ijtimoiy buyurtma sifatida ta'lim muassasalarida o'quv – tarbiya ishlarini tashkil etish, amalga oshirish orqali, aql – zakovatli, bilimdon, ishbilarmon tadbirkorlarni tayyorlash hamda ularni davr texnikasi va uning ishlash texnologiyasi bilan yaqindan tanishtirish.

2. Ta'lim - tarbiya ishlarini amalga oshira borib, o'qituvchi -talabalarni ilmiy bilimlar bilan qurollantirish, egallangan bilimlar asosida ularda amaliy ko'nikma, malakalar hosil qilish va uzluksiz ta'limga tayyorlash.

3. Qo'lga kiritilgan ma'lumotlar asosida o'quvchi - yoshlarda ilmiy dunyoqarashni shakllantirish, ma'naviy – axloqiy salohiyatini yuksaltirish, jamiyat uchun erkin fikrlovchi va irodasi baquvvat yoshlarni tarbiyalab voyaga etkazish, ularning o'z – o'zini anglash, o'z – o'zini boshqarish malakalarini hosil qilish, mustaqil bilim olishga o'rgatish, g'oyaviy – siyosiy e'tiqodini hamda milliy – estetik fazilatlarini tarkib toptirishga erishish.

Pedagogik kompetentlikni takomillashtirishning qayd qilib o'tilgan yo'nalishlari, birinchi navbatda, o'qituvchi – tarbiyachi mohirligini oshirishga yordam bersa, ikkinchidan o'qituvchining ta'lim – tarbiya ishlarining yangi pedagogik g'oyalar asosida tashkil qilishga o'z kasbiy malakasini yuksaltirishga katta imkon beradi. Chunonchi, doimiy mashq qilish mahoratni takomillashtirish ta'lim-tarbiyani yaxshilash uchun nur ustiga, a'lo nur bo'lib xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Abdullayeva. Sh., Axatova. D.A Pedagogika. Toshkent. «Fan» 2004-y.
2. Davronov I.E., Jurayev B.T. Pedagogika va psixologiya fanlarini o'qitish metodikasi. –B.: Durdona, 2019
3. R.A.Mavlonova, D.Abdurahimova. Pedagogik mahorat. O'quv qo'llanma T.:Fan va texnologiya 2012-yil
4. Ochilov M.. Muallim qalb me'mori. O'quv qo'llanma T :.O'qituvchi. 2004-yil
5. Muslimov N.A., va boshqalar. Kasb ta'limi o'qituvchilarining kasbiy kompetentligini shakllantirish texnologiyasi/ Monografiya. – T.: “Fan va texnologiya” nashriyoti, 2013.
6. Sayidahmedov N. Pedagogik mahorat va pedagogik texnologiya. T.: OPI, 2003.Sultonova G.A. Pedagogik mahorat. – T.: Nizomiy nomidagi TDPU, 2005.



7. Tolipov O', Usmonboeva M. Pedagogik texnologiya: nazariya va amaliyot.
- T.: Fan, 2005. – 205 b.